**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XAMROYEVA DILAFRO‘Z NAMOZOVNA

BERILGANLARNING INTERVAL ANIQMASLIK SHARTIDA ALGEBRAIK XOS QIYMAT MUAMMOLARINI YECHISH ALGORITMLARI

**05.01.07-Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UDK: 519.614

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XAMROYEVA DILAFRO‘Z NAMOZOVNA

BERILGANLARNING INTERVAL ANIQMASLIK SHARTIDA ALGEBRAIK XOS QIYMAT MUAMMOLARINI YECHISH ALGORITMLARI

**05.01.07-Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/FM453 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-fizmat.nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Yuldashev Ziyavidin Xabibovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Normurodov Chori Begaliyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Kalxanov Polatbek Jumabayevich fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSC.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «12» 07 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.:(+99871)227-12-24, faks:(+99871)246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (97 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «21» 06 kuni tarqatildi.
(2023-yil «05» 06 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M.Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R.Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

B.F.Abduraximov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlarda, ayniqsa muhandislik texnologiyalari bilan bog‘liq tizimlarning matematik modellarini tahlil, sintez va diagnostika qilishda ko‘p hollarda xos qiymatlar masalalarini yechishga keltiriladi. Masalan, mexanik va elektr tizimlarida xos qiymatlar - tebranishlar chastotasini aniqlashga imkon bersa, ularga mos xos vektorlar esa - tebranish shakllarini tavsiflaydi. Shuningdek, dinamik tizimlar nazariyasida xos qiymatlar haqidagi bilimlar, tizimning vaqt oralig‘idagi muhim xossalarini aniqlashga va bunday tizimlarning turg‘unligi muammosini hal qilishga imkon beradi. Shu sababli, xos qiymatlar masalasini yechishning samarali usullari, algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish hamda ularni turli amaliy masalalarning matematik modellari xossalarini tadqiq etishda qo‘llash amaliy matematikaning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoda bir qator muhim amaliy masalalarni yechishda berilganlarning noaniqligini hisobga olish vositasi sifatida interval analiz va noravshan to‘plamlar nazariyasi usullari keng tadqiq etilmoqda. Ushbu nisbatan yangi yondashuvlar an’anaviy ehtimolli usullarga qaraganda sodda matematik apparatni taqdim etadi va birinchidan, algoritmik, hisoblash ma’nosida yetarlicha samarali, ikkinchidan, aniqmas parametrli matematik modellarni turg‘un tadqiq qilishga imkon beradi. Shu sababli aniqmaslik sharoitidagi jarayonlarni tavsiflaydigan interval matematik modellarni qurish, ularni tadqiq etish uchun yangi interval usullarni va algoritmlarni ishlab chiqish, hamda keng doiradagi foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan mos dasturiy ta’minot yaratish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan boshqaruv nazariyasi, mexanika, robototexnika, iqtisodiyot va energetika sohalaridagi masalalarni sonli-analitik yechish usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, interval aniqmaslikka ega bo‘lgan jarayonlarni matematik modellashtirish, turli mexanik tuzilmalar va boshqaruv tizimlarining turg‘unligini asoslash, hamda iqtisodiy balans modellarning samaradorligini aniqlash bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Qarorning bajarilishini ta’minlash uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan qator masalalarning matematik modellari muhim xossalarini aniqlash indikatori sifatida interval xos qiymat masalalarining analitik va sonli yechish usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon ilmiy adabiyotlari tahlili keyingi yillarda interval analiz usullariga bo‘lgan qiziqish muntazam ortib borayotganligidan dalolat beradi. Interval analiz asoslari G.Alefeld, E.Kaucher, Y.I.Shokin, R.B.Kearfott, V.Kreinovich, G. Mayer, R.E.Moore, A.Neumaier, J.Rohn, S.M.Rump, E.Hansen, S.P.Shary, A.V. Lakeyev, S.I.Jilin, B.S.Dobronets, S.A.Kalmikov, Z.X.Yuldashev va boshqalarning monografiyalarida keng yoritilgan.

Interval analiz usullari doirasida xos qiymat masalalari B.R.Barmish, D.Hudak, Y.T.Juang, A.Deif, J.Rohn, R.Lohner, H.-S.Ahn, G.Mayer, L.Kolev, D.Hertz, M.Hladik, Z.Qiu, H.Leng, D.Hartman, M.-H.Matcovschi, D.Daney, E.P.Tsigaridas, D.Nerantzis, M.A.El-Gebeily va boshqa mualliflarning ishlarida qaralgan. Xos qiymat masalalarini yechishning interval usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo`yicha asosiy natijalar A.Deif, J.Rohn, G.Mayer, L.Kolev, D.Hertz va M.Hladiklarga tegishli. A.Deif va J.Rohn ishlarida interval matritsaning haqiqiy xos sonlari to‘plami chegaraviy nuqtalarini topish masalalari qaralgan. G. Mayer Teylor qatoriga yoyib hisoblashga asoslangan haqiqiy va kompleks interval matritsalarining xos qiymatlarini hisoblash usulini ishlab chiqdi. M.Hladik va uning hammualliflari simmetrik, shuningdek nosimmetrik haqiqiy interval matritsalarning xos qiymatlari to‘plami chegaralarini aniqlashda “Filtrlash usuli” deb ataladigan iteratsion usulni taklif qilgan. Ushbu usul interval matritsalarning xosmaslik yetarli shartiga asoslangan bo‘lib, har bir iteratsiyada yaqinlashishni yaxshilaydi. Z.Qiu va uning hammualliflari interval matritsani buzilgan haqiqiy matritsa sifatida qarab, haqiqiy nosimmetrik interval matritsalarning barcha mumkin bo‘lgan xos qiymatlarini baholash uchun “interval buzilishlar” usulini ishlab chiqishgan. L.Kolev parametrli matritsalar asosida xos qiymatlarni tashqi interval baholash masalasini ko‘rib chiqdi. D.Gertz esa J.Rohnning haqiqiy interval matritsalar xos qiymatlari to‘plamining chegarasini topish bo‘yicha natijalarini kompleks interval matritsalar uchun umumlashtirdi. Interval xos qiymat masalalarining turli amaliy masalalarni yechishga tadbiq etilishi B.R.Barmish, L.V.Kolev, S.L.Demacro, R.K.Edevally, D.Hu, H.H.Liao, S.H.Lin, J.A. Argoun, J.Chen, A.D.Dimarogonas, Z.Qiu, K.Yuan, H.Leng, A.Deif, I. Elishakoff, M.A.El-Gebeily, V.N.Efanov, D.I. Schwartz va boshqa olimlarning ishlarida qaralgan.

O‘zbekistonda interval analiz muammolari va interval usullarning ba’zi tadbiqlari Z.X.Yuldashev, R.H.Hamdamov, Sh.A.Nazirov, N.R.Yusupbekov, Sh.M.G‘ulomov, M.B.Bazarov, A.A.Abdukadirov, U.Sharipov, A.A.Ibragimov, M.B.Xudayarov, P.J.Kalxanov, O.J.Xudayberdiyev va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat pedagogika institutining I1-FM-2018-3 – “Tabiiy jarayonlarni matematik modellashtirish, hisoblash algoritmlari va ularning dasturiy ta’minoti” rejali mavzusi, shuningdek A-5-034+(A-5-035) – “Parametrlarning interval aniqmasligida uzluksiz texnologik obyektlarni boshqarish tizimlarining turg‘unligini tahlil qilish usullari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish” (2015-2017) mavzusidagi davlat amaliy ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi algebraik xos qiymat muammosini yechishning interval usullari, algoritmlari, dasturiy ta’minotini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

haqiqiy va interval matritsalar uchun xos qiymat muammolarining turli yondashuvlar asosida qo‘yilishini tahlil qilish;

haqiqiy interval matritsalar uchun standart masala xos qiymatlarining to‘liq muammosini yechish usullarini ishlab chiqish va asoslash;

interval matritsalar uchun xos qiymatlar qismiy muammosini yechishning ba’zi iteratsion usullarining takomillashtirilgan algoritmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish xarajatlari matritsasining xos qiymatlari asosida tarmoqlararo iqtisodiy balans interval modelining mahsuldorligini asoslash;

interval parametrlar bilan berilgan avtomobil osmasi mexanik tebranish tizimining turg‘unlik shartlarini topish va asoslash;

interval xos qiymat masalalarini sonli yechish algoritmlari va dasturlar majmuasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti interval berilganlarga ega bo‘lgan jarayonlar, xos qiymatlarni hisoblash usullari, interval modellar va algoritmlar.

Tadqiqotning predmeti interval matritsalarning xos qiymatlari uchun interval baholarni olish usullari, yechimlarning intervalga tegishlilik teoremalari, interval algoritmlar va dasturiy ta’minot ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida interval analiz, chiziqli algebra, hisoblash matematikasi va sonli tahlil, matematik modellashtirish va obyektga yo‘naltirilgan dasturlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

simmetrik va nosimmetrik interval matritsalarning xos qiymatlari to`plamlarining quyi va yuqori chegaralarini hisoblash formulalari olingan;

maxsus qirra matritsalarini qurish yo‘li bilan interval matritsalar xos qiymatlarining mos intervallarga tegishlilik baholari topilgan;

interval matritsalar dominant xos qiymatlar to‘plami chegaralarini hisoblash uchun xos qiymatlar qismiy muammosini yechishning darajali va skalyar ko‘paytmalar usullarining modifikatsiyalangan algoritmlari ishlab chiqilgan;

ishlab chiqarish xarajatlari matritsasining xos qiymatlari uchun o‘rnatilgan shart asosida tarmoqlararo iqtisodiy balans interval modelining mahsuldorlik masalasi yechilgan;

parametrlarning interval aniqmaslik shartida avtomobil osma tuzilmasi yopiq boshqariluvchi tebranish tizimi sifatida qaralib, holat matritsasi xos qiymatlari asosida tebranish tizimi turg‘unligining baholari olingan;

interval arifmetikani qo‘llash orqali xos qiymat to‘liq va qismiy muammolarini yechishning mos algoritmlari va dasturiy ta’minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

simmetrik, shuningdek nosimmetrik haqiqiy interval matritsalarning har bir xos qiymatlarining chegaralarini topish uchun oshkor formulalar olingan;

haqiqiy interval matritsalar uchun to‘liq va qismiy xos qiymatlar muammolarini yechish uchun mos algoritmlar ishlab chiqilgan va dasturlar majmuasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada olingan tasdiqlarning ishonchliligi undagi matematik mulohazalar va isbotlarning qat’iyligi, chiziqli algebra va interval analiz usullaridan foydalanilganligi, yechimlarni ichida saqlash sharti bilan interval kengligi uchun baholarning o‘rnatilganligi va sonli tajribalar o‘tkazilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilayotgan usullarni mexanik konstruksiyalarni loyihalash masalalarini yechishda, iqtisodiy balans modellarining samadorligini aniqlashda, tebranish tizimlari diagnostikasida va interval berilganlar asosida xos qiymat masalalari yuzaga keladigan boshqa fan sohalarida qo‘llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati interval iteratsion jarayonlarni loyihalashda, interval algoritmlarni ishlab chiqishda va yaratilgan dasturiy ta’minotdan xos qiymat masalasiga keltiriladigan turli amaliy masalalarni yechishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Berilganlarning interval aniqmaslik shartida algebraik xos qiymat masalalarini yechish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagi yo‘nalishlarda amaliyotga joriy etilgan:

interval xos qiymatlarning to‘liq muammosini yechish usullari, algoritmlari va dasturiy ta’minotidan 06/2020-E - “Navoiy kon-metallurgiya kombinati muhandislik inshootlarida generator majmualarini ishlab chiqish va o‘rnatish” mavzusidagi amaliy ilmiy-tadqiqot loyihasida generator majmualarini mexanik tuzilmalari holatini diagnostika qilish masalalarini yechishda foydalanilgan (Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining 2023-yil 2-fevraldagi №01-04/258-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi muhandislik inshootlarida generatorlarni o‘rnatishda “inshoot-asos” mexanik tuzilmasining turg‘unligini aniqlash imkonini bergan.

xos qiymatlar qismiy muammosini yechishning interval usullari va algoritmlaridan OT-F4-28 raqamli “Giperbolik sistemalar uchun adekvat hisoblash modellarini qurish” mavzusidagi davlat ilmiy-tadqiqot loyihasida dissipativ chegaraviy shartlar asosida berilgan bir oʻlchovli chiziqli giperbolik sistemalar yechimlari turgʻunligini baholashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy universitetining 2023-yil 8-fevraldagi 04-11/636-son maʼlumotnomasi). Interval usullarni qoʻllash orqali olingan sonli natijalar Lyapunov funksiyasining diskret analogi uchun aprior baholarni tahlil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyada olingan natijalar 19 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shundan 12 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda maʼruza qilingan va muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami nashrlar soni 32 tani tashkil etadi, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan, shuningdek, 4 ta EHM uchun dasturga mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 108 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, muammoning oʻrganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqotning obyekti, predmeti va usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Haqiqiy va interval matritsalar uchun algebraik xos qiymatlar muammosi”** deb nomlangan birinchi bobi tadqiqotda qaralgan masalalar, usullar va boshqa zarur tushunchalar sharhiga qaratilgan boʻlib, unda xos qiymat muammosi boʻyicha mavjud yondashuvlar, masalaning turli shakllarda matematik qoʻyilishi tavsiflangan. Bunda asosiy eʼtibor berilgan maʼlumotlarda interval aniqmasliklarning mavjudligiga qaratiladi.

Birinchi paragrafda xos qiymat masalalarining umumiy tasnifi, xususan, xos qiymatlar standart masalasining toʻliq va qismiy muammolari, simmetrik va nosimmetrik matritsalar sinflari boʻyicha masalaning matematik qoʻyilishi qaralgan. Shuningdek, xos qiymatlar muammosini yechish usullarining asosiy gʻoyalari toʻgʻri va iteratsiyali usullar uchun tahlil qilingan.

I bobning ikkinchi paragrafida esa, interval matritsalar uchun xos qiymatlar masalasini tadqiq qilishda zarur bo‘lgan interval analizning asosiy tushunchalari keltirilgan.

Xalqaro interval belgilashlar sistemasiga ko‘ra interval kattaliklar matnda qalin va yotiq matematik shriftlar bilan ajratiladi, interval bo‘lmagan (haqiqiy) kattaliklar esa alohida ajratilmaydi.

Ta’rif 1. *Faraz qilaylik,* $\underline{a}$ *va* $\overline{a}$ *sonlar* $\underline{a} \le \overline{a}$ *shartni qanoatlantiruvchi haqiqiy sonlar bo‘lsin. U holda* $\boldsymbol{a} = [\underline{a}, \overline{a}] = \{x \in \mathbb{R} \mid \underline{a} \le x \le \overline{a}\}$ *to‘plam* ***haqiqiy interval*** *yoki oddiy so‘z bilan,* ***haqiqiy interval son*** *deb ataladi (bunda “haqiqiy” so‘zi kompleks intervaldan farqlash uchun qo‘llaniladi). Barcha haqiqiy intervallar to‘plami* $\mathbb{IR}$ *kabi belgilanadi. Haqiqiy* $\underline{a}$ *va* $\overline{a}$ *sonlar esa, mos ravishda* $\boldsymbol{a}$ *intervalning quyi va yuqori chegaralari deyiladi.*

Ta’rif 2. *Faraz qilaylik,* $\boldsymbol{a} = [\underline{a}, \overline{a}]$ *- haqiqiy interval. U holda*

- $\boldsymbol{a}$ *intervalning* ***kengligi*** *deb* $\operatorname{wid}\boldsymbol{a} = \overline{a} - \underline{a}$ *songa aytiladi;*
- $\boldsymbol{a}$ *interval* ***radiusi*** *deb* $\operatorname{rad}\boldsymbol{a} = \frac{1}{2}\left(\overline{a} - \underline{a}\right)$ *sonni aytamiz;*
- $\boldsymbol{a}$ *intervalning* ***o‘rtasi*** $\operatorname{mid}\boldsymbol{a} = \frac{1}{2}\left(\underline{a} + \overline{a}\right)$ *kabi aniqlanadi;*
- $\boldsymbol{a}$ *interval sonining* ***absolyut qiymati (moduli*** *yoki* ***magnitudasi)*** *deb* $|\boldsymbol{a}| = \max\{|a| \mid a \in \boldsymbol{a}\} = \max\{|\underline{a}|, |\overline{a}|\}$ *songa aytiladi.*

Ta’rif 3. *Kvadrat interval matritsa* $\boldsymbol{A} := [\underline{A}, \overline{A}] = \left\{A \in \mathbb{R}^{n\times n};\ \underline{A} \le A \le \overline{A}\right\}$ *kabi aniqlanadi,* $\underline{A}, \overline{A} \in R^{n\times n}$ *matritsalar esa* ***chegaraviy matritsalar*** *deyiladi.*

Interval $\boldsymbol{A}$ matritsaning *o‘rta* va *radius* matritsalari quyidagicha aniqlanadi:

$$\operatorname{mid}\boldsymbol{A} = \frac{1}{2}(\underline{A} + \overline{A}), \qquad \operatorname{rad}\boldsymbol{A} = \frac{1}{2}(\overline{A} - \underline{A}).$$

Anglash mumkinki, $\operatorname{mid}\boldsymbol{A}$ va $\operatorname{rad}\boldsymbol{A}$ matritsalar elementlari interval sonlar emas, ya’ni haqiqiy sonlardan iborat. U holda interval matritsani quyidagi ko‘rinishda tasvirlash mumkin:

$$\boldsymbol{A} = \left[\underline{A}, \overline{A}\right] = \left[\operatorname{mid}\boldsymbol{A} - \operatorname{rad}\boldsymbol{A}, \operatorname{mid}\boldsymbol{A} + \operatorname{rad}\boldsymbol{A}\right] =$$

$$= \left\{A \mid \left(\left|A - \operatorname{mid}\boldsymbol{A}\right| \le \operatorname{rad}\boldsymbol{A}\right) \text{ yoki } \left(\operatorname{mid}\boldsymbol{A} - \operatorname{rad}\boldsymbol{A} \le A \le \operatorname{mid}\boldsymbol{A} + \operatorname{rad}\boldsymbol{A}\right)\right\},$$

bu yerda tengsizliklar matritsa elementlariga nisbatan qo‘llaniladi.

Ta’rif 4. *Interval* $\boldsymbol{A}$ *matritsa* ***simmetrik matritsa*** *deyiladi, agar* $\boldsymbol{A} = \boldsymbol{A}^T$ *tenglik o‘rinli bo‘lsa va u quyidagicha aniqlanadi:*

$$\boldsymbol{A}^S = \left\{A \mid A = A^T,\ A \in \boldsymbol{A}\right\}.$$

Ta’rif 5. *Ixtiyoriy haqiqiy matritsa* $n \times n$ *o‘lchovli* $\boldsymbol{A} = \left(\boldsymbol{a}_{ij}\right) \in \mathbb{IR}^{n\times n}$ *interval matritsaning* ***qirra matritsasi*** *deyiladi, agar uning* ij *- elementi* $\underline{a}_{ij}$ *yoki* $\overline{a}_{ij}$ *lardan iborat bo‘lsa. Interval* $\boldsymbol{A}$ *matritsaning barcha qirra matritsalari to‘plami quyidagicha aniqlanadi:*

$$\operatorname{vert} \boldsymbol{A} := \left\{ A \in \mathbb{R}^{n\times n} \mid A = (a_{ij}),\ a_{ij} \in \{\underline{a}_{ij}, \overline{a}_{ij}\} \right\}.$$

Uchinchi paragrafda interval xos qiymatlar muammosining turli matematik qo‘yilishi tahlil qilingan va xos qiymatlar to‘plamini interval baholash variantlari taklif etilgan.

Algebraik xos qiymatlar masalasi $\boldsymbol{A} \in \mathbb{IR}^{n\times n}$ interval kvadrat matritsa uchun quyidagi tenglama bilan aniqlanadi

$$\boldsymbol{A}x = \lambda x, \tag{1}$$

u holda (1) sistemaning barcha xos qiymatlari to‘plami, umumiy holda $\mathbb{C}$ kompleks sonlar maydonida soha tashkil qiladi va u kompakt to‘plamdir, ya’ni

$$\Lambda(\boldsymbol{A}) := \{\lambda \in \mathbb{C} \mid A \in \boldsymbol{A},\ x \neq 0,\ Ax = \lambda x\}. \tag{2}$$

Xos qiymatlar to‘plami Λ ni topish masalasi, bevosita quyidagi sistemani yechishga olib keladi

$$Ax = \lambda x, \quad \|x\| = 1, \quad A \in \boldsymbol{A}, \quad \lambda \in \boldsymbol{\lambda}, \tag{3}$$

bu yerda $\|\cdot\|$ - ixtiyoriy vektor normasi. Interval xos qiymatlar masalalarini yechishda interval amallarni haqiqiy (an’anaviy) yechish usullariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash samara bermaydi, bunday yondashuv “*O‘rash effekti*” (ing. “*Wrapping effect*”, ruscha “*Эффект обёртывания*”) deb nomlanuvchi holatga olib kelishi mumkin, ya’ni hisoblangan interval xos qiymatlar kengligi sezilarli darajada oshib ketishi mumkin.

Interval analizda chiziqli (shuningdek, chiziqli bo‘lmagan) interval koeffitsiyentli tenglamalar sistemasining yechimlari to‘plamini baholashda eng ko‘p qo‘llaniladigan ikkita masala qaraladi, ular *tashqi* va *ichki* interval baholash masalalaridir. Umumiy holda, interval baholash deganda biz yechim joylashgan qiymatlar sohasini uning interval bahosi bilan almashtirishni tushunamiz. Keyin, xos qiymatlar to‘plamini baholash masalasi uchun biz ushbu tushunchalarning ta’rifini ixtiyoriy haqiqiy interval matritsa uchun qayta shakllantiramiz, chunki interval simmetrik matritsalar ixtiyoriy interval matritsaning xususiy holi hisoblanadi.

Ta’rif 6. *Faraz qilaylik,* $\boldsymbol{A} \in \mathbb{IR}^{n\times n}$ *- ixtiyoriy interval matritsa bo‘lsin. U holda interval xos qiymatlar masalasini yechishda:*

1) ***tashqi interval baholash*** *deyiladi, agar bizdan* $\boldsymbol{\lambda}_i = \boldsymbol{\lambda}_i^{\mathrm{Re}} + j\boldsymbol{\lambda}_i^{\mathrm{Im}} \in \mathbb{IC}$ *intervallarni topish talab qilingan bo‘lib, ularning chekli birlashmalari yechim to‘plam* Λ *ni tashqaridan qoplay olsa, ya’ni* $\bigcup_{i=1}^{n} \boldsymbol{\lambda}_i \supseteq \Lambda$.
2) ***ichki interval baholash*** *deyiladi, agar bizdan* $\boldsymbol{\mu}_i = \boldsymbol{\mu}_i^{\mathrm{Re}} + j \cdot \boldsymbol{\mu}_i^{\mathrm{Im}} \in \mathbb{IC}$ *intervallarni topish talab qilingan bo‘lib, ularning chekli birlashmalari yechim to‘plam* Λ *ning ichida joylashgan bo‘lsa, ya’ni* $\bigcup_{i=1}^{n} \boldsymbol{\mu}_i \subseteq \Lambda$.

Interval baholash masalalarida eng kichik “*tashqi*” va eng katta “*ichki*” baholar optimal hisoblanadi. Ushbu dissertatsiyada faqat tashqi interval baholash masalalari qaralgan va bizni eng kichik kenglikdagi interval yechimlar qiziqtiradi.

Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafida interval xos qiymatlar standart masalasi buzilgan (ing. “perturbed”, ruscha «возмущенная») masala sifatida ko‘rib chiqiladi:

$$\left(\operatorname{mid}\boldsymbol{A}+\delta A\right)x=\lambda x, \qquad |\delta A|\le \operatorname{rad}\boldsymbol{A}, \tag{4}$$

bunda $\lambda=\lambda^{Re}+j\lambda^{Im}$, $x=x^{Re}+jx^{Im}$, shuningdek,

$$\lambda_i^{Re}\in\boldsymbol{\lambda}_i^{Re}=\left[\underline{\lambda}_i^{Re},\overline{\lambda}_i^{Re}\right], \quad \lambda_i^{Im}\in\boldsymbol{\lambda}_i^{Im}=\left[\underline{\lambda}_i^{Im},\overline{\lambda}_i^{Im}\right], \quad i=1,2,\ldots,n,$$

hamda

$$\underline{\lambda}_i^{Re}=\min_{A\in\boldsymbol{A}}\left\{\operatorname{Re}\left(\lambda_i(A)\right)\right\}, \quad \overline{\lambda}_i^{Re}=\max_{A\in\boldsymbol{A}}\left\{\operatorname{Re}\left(\lambda_i(A)\right)\right\}, \; i=1,2,\ldots,n,$$

$$\underline{\lambda}_i^{Im}=\min_{A\in\boldsymbol{A}}\left\{\operatorname{Im}\left(\lambda_i(A)\right)\right\}, \quad \overline{\lambda}_i^{Im}=\max_{A\in\boldsymbol{A}}\left\{\operatorname{Im}\left(\lambda_i(A)\right)\right\}, \; i=1,2,\ldots,n.$$

Oettli-Prager teoremasiga asosan (3) masala uchun quyidagi tengsizlik o‘rinli

$$\left|\operatorname{mid}\boldsymbol{A}\,x-\lambda x\right|\le \operatorname{rad}\boldsymbol{A}\,|x|. \tag{5}$$

Haqiqiy va mavhum qismlarini ajratib olish uchun (5) tengsizlikni quyidagicha yozamiz

$$\left|\operatorname{mid}\boldsymbol{A}(x^{\mathrm{Re}}+jx^{\mathrm{Im}})-(\lambda^{\mathrm{Re}}+j\lambda^{\mathrm{Im}})(x^{\mathrm{Re}}+jx^{\mathrm{Im}})\right|\le \operatorname{rad}\boldsymbol{A}\,|x^{\mathrm{Re}}+jx^{\mathrm{Im}}|,$$

keyin, bir nechta amallardan keyin quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\begin{aligned} &|\lambda^{\mathrm{Re}}x^{\mathrm{Re}}-\lambda^{\mathrm{Im}}x^{\mathrm{Im}}-\operatorname{mid}\boldsymbol{A}\,x^{\mathrm{Re}}|\le \operatorname{rad}\boldsymbol{A}\,|x^{\mathrm{Re}}|,\\ &|\lambda^{\mathrm{Re}}x^{\mathrm{Im}}+\lambda^{\mathrm{Im}}x^{\mathrm{Re}}-\operatorname{mid}\boldsymbol{A}\,x^{\mathrm{Im}}|\le \operatorname{rad}\boldsymbol{A}\,|x^{\mathrm{Im}}|. \end{aligned} \tag{6}$$

Anglash mumkinki, (6) tengsizliklar bevosita $\boldsymbol{A}x\cap\lambda x\ne\varnothing$ shartdan kelib chiqadi, ya’ni $\boldsymbol{A}x=\left[\operatorname{mid}\boldsymbol{A}\;x-\operatorname{rad}\boldsymbol{A}\,|x|,\,\operatorname{mid}\boldsymbol{A}\;x+\operatorname{rad}\boldsymbol{A}\,|x|\right]$.

Demak, $\operatorname{mid}\boldsymbol{A}+\delta A$ matritsalar oilasi uchun har bir xos (λ,x) juftlik $|\delta A|\le\operatorname{rad}\boldsymbol{A}$ shart bilan (6) moslik mezonini qanoatlantiradi.

(4) masalani $\left(\operatorname{mid}\boldsymbol{A}+\delta A\right)\left(x^{\mathrm{Re}}+jx^{\mathrm{Im}}\right)=\left(\lambda^{\mathrm{Re}}+j\lambda^{\mathrm{Im}}\right)\left(x^{\mathrm{Re}}+jx^{\mathrm{Im}}\right)$ ko‘rinishda yozib, uni $y^*x=\left(y^{\mathrm{Re}}\right)^T x^{\mathrm{Re}}+\left(y^{\mathrm{Im}}\right)^T x^{\mathrm{Im}}=1$ shaklda normallashtirilgan qo‘shma kompleks $y^*=y^{\mathrm{Re}}-j\,y^{\mathrm{Im}}$ vektorga ko‘paytirish orqali ixtiyoriy haqiqiy interval matritsa uchun xos qiymatlarning haqiqiy va mavhum qismlarini ajratib olishga erishamiz:

$$\lambda^{\mathrm{Re}}=\left(y^{\mathrm{Re}}\right)^T\left(\operatorname{mid}\boldsymbol{A}+\delta A\right)x^{\mathrm{Re}}+\left(y^{\mathrm{Im}}\right)^T\left(\operatorname{mid}\boldsymbol{A}+\delta A\right)x^{\mathrm{Im}}, \tag{7}$$

$$\lambda^{\mathrm{Im}}=\left(y^{\mathrm{Re}}\right)^T\left(\operatorname{mid}\boldsymbol{A}+\delta A\right)x^{\mathrm{Im}}-\left(y^{\mathrm{Im}}\right)^T\left(\operatorname{mid}\boldsymbol{A}+\delta A\right)x^{\mathrm{Re}}. \tag{8}$$

Dissertatsiyaning **“Xos qiymatlar muammosini yechishning interval usullari va algoritmlarini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobi xos qiymatlar to‘liq va qismiy muammolarini yechish usullarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Bunda haqiqiy interval matritsalarning simmetrik va nosimmetrik sinflari qaraladi.

Ushbu bobning birinchi paragrafi uchta qismparagrafga bo‘lingan. Birinchi qismparagrafda simmetrik, ikkinchi bo‘limda nosimmetrik interval matritsalarning har bir interval xos qiymatini topish masalasi yechilgan. Oxirgi uchinchi bo‘limda boshqa mualliflarning natijalari bilan taqqoslash asosida ishlab chiqilgan usullarning samaradorligini ko‘rsatuvchi sonli natijalar keltirilgan.

Simmetrik hol uchun $|\delta A^S|\le\operatorname{rad}\boldsymbol{A}^S$ shart bilan quyidagi masala qaraladi:

$$\left(\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S+\delta A^S\right)x=\lambda x. \tag{9}$$

Bunda interval baholash masalasi quyidagicha qo‘yiladi:

$$\left(\begin{array}{c} \boldsymbol{A}^S=\left\{A^S \;\middle|\; |\boldsymbol{A}^S-\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S|\le \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\right\} \textit{ simmetrik interval} \\ \textit{matritsa uchun } \Lambda(\boldsymbol{A}^S)=\left\{\lambda\in\mathbb{R}\mid A^Sx=\lambda x,\ \|x\|_2=1,\ A^S\in\boldsymbol{A}^S\right\} \\ \textit{to`plamdan } A^S\in\boldsymbol{A}^S \textit{ matritsalarning har bir xos qiymati} \\ \textit{uchun interval baholari topilsin} \end{array}\right).$$

(5) tengsizlik $\Lambda\left(\boldsymbol{A}^S\right)$ to‘plamni baholashning sodda usulini taqdim etadi. Sababi (9) sistemaning har bir xos juftligi (λ, x)

$$-\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot|x|\le \mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S x-\lambda x\le \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot|x|$$

tengsizlikni qanoatlantiradi, ya’ni $\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S x-\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot|x|\le\lambda x\le \mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S x+\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot|x|$. Tengsizlikni chap tomondan x^T ga ko‘paytirib ($x^Tx=1$), quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{x^T\cdot\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S\cdot x-|x|^T\cdot\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot|x|}{x^Tx}\le\lambda\le\frac{x^T\cdot\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S\cdot x+|x|^T\cdot\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot|x|}{x^Tx}. \tag{10}$$

Ushbu (10) munosabat, berilgan interval matritsaning butun spektri bo‘yicha eng katta va eng kichik haqiqiy xos qiymatlarni beradi. Shu sababli har bir $\lambda_i,\ i=1,2,\dots,n,$ aniq xos qiymat uchun barcha buzilish δA^S matritsalarida mos x^i xos vektorlari komponentlari ishorasi o‘zgarmaydi deb hisoblaymiz. Ushbu farazga ko‘ra diagonal matritsani, ya’ni ishora matritsasini $S^i=\mathrm{diag}\left(\mathrm{sgn}(x_1^i),\dots,\mathrm{sgn}(x_n^i)\right),\ \ x_j^i\ne 0$ kabi aniqlaymiz, bunda xos vektorlar komponentlarining ishorasini

$$(\mathrm{sgn}\,x)_i=\begin{cases}1, & \text{agar } x_i\ge 0,\\ -1, & \text{agar } x_i<0,\end{cases}\qquad i=1,2,\dots,n, \tag{11}$$

formula bilan aniqlashni taklif qilamiz va ko‘rinib turibdiki, $S^ix^i=|x^i|>0$. Ishora matritsasi S^i, o‘rta matritsa $\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}$ ning xos vektorlari komponentlarining (11) formula bilan aniqlangan qiymatlaridan hosil bo‘ladi. (10) dan $\overline{\lambda}$ va $\underline{\lambda}$ larni baholash uchun taniqli Kun-Takker teoremasiga asosan va $x^Tx=1$ ni hisobga olib quyidagi baholarni olamiz:

$$\lambda=\max_{\|x\|_2=1}\left\{x^T\cdot\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S\cdot x+|x|^T\cdot\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot|x|\right\}\le\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S+S^i\cdot\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot S^i=\overline{\lambda}, \tag{12a}$$

$$\lambda=\min_{\|x\|_2=1}\left\{x^T\cdot\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S\cdot x-|x|^T\cdot\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot|x|\right\}\ge\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S-S^i\cdot\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot S^i=\underline{\lambda}, \tag{12b}$$

bunda λ - Lagranj ko‘paytuvchisi uchun $\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S x+S^i\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S S^i x-\lambda x=0$ va $\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S x-S^i\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S S^i x-\lambda x=0$.

(12a)-(12b) formulalarda olingan matritsalar $\underline{\lambda}$ va $\overline{\lambda}$ xos qiymatlar uchun mos qirra matritsalarini ifodalaydi, ularni $\underline{B}=\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S-S^i\cdot\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot S^i$ va $\overline{B}=\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}^S+S^i\cdot\mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}^S\cdot S^i$ kabi belgilaymiz. Simmetrik muammoni yechishda qirra matritsalarining umumiy soni $2n$ ga teng, bu esa boshqa mavjud usullardan kam ekanligini qayd etish mumkin. Masalan, D. Hertz usuli uchun bu son 2^n ga teng.

Teorema 1. *Faraz qilaylik,* $\boldsymbol{A}^S = \left[\operatorname{mid}\boldsymbol{A}^S - \operatorname{rad}\boldsymbol{A}^S, \operatorname{mid}\boldsymbol{A}^S + \operatorname{rad}\boldsymbol{A}^S\right]$ *- simmetrik interval matritsa bo'lsin. Agar* $\operatorname{mid}\boldsymbol{A}^S$ *matritsaning* x^i *xos vektorlari komponentlarining ishoralari* $\boldsymbol{A}^S$ *interval matritsa uchun ham o'zgarmas bo'lsa, u holda* $A^S \in \boldsymbol{A}^S$ *matritsalarning* λ_i *xos qiymatlari quyidagi intervalda bo'ladi*

$$\boldsymbol{\lambda}_i = \left[\lambda_i(\underline{B}),\ \lambda_i(\overline{B})\right],$$

bu yerda $i = 1, 2, ..., n$, $\underline{B}, \overline{B}$ *- mos qirra matritsalari.*

Simmetrik xos qiymatlar masalasini yechish uchun taklif etilayotgan usulga mos hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan va dissertatsiyada psevdokodlar shaklida berilgan.

Nosimmetrik holat uchun ham (4) masala qaraladi. (7) va (8) formulalarga ko'ra xos qiymatlarning haqiqiy va mavhum qismlari ajratib olingandan so'ng, mos ravishda xos qiymatlar chegaralari $\overline{\lambda}^{\mathrm{Re}}$, $\underline{\lambda}^{\mathrm{Re}}$, $\overline{\lambda}^{\mathrm{Im}}$, $\underline{\lambda}^{\mathrm{Im}}$ baholanadi. Buning uchun (7) formulaga muvofiq, haqiqiy qism uchun quyidagi baholar olingan:

$$\overline{\lambda}^{\mathrm{Re}} = \lambda^{\mathrm{Re}}\left(\operatorname{mid}\boldsymbol{A} + \operatorname{rad}\boldsymbol{A} \circ \left| x^{\mathrm{Re}}\left(y^{\mathrm{Re}}\right)^T + x^{\mathrm{Im}}\left(y^{\mathrm{Im}}\right)^T \right|\right), \tag{13a}$$

$$\underline{\lambda}^{\mathrm{Re}} = \lambda^{\mathrm{Re}}\left(\operatorname{mid}\boldsymbol{A} - \operatorname{rad}\boldsymbol{A} \circ \left| x^{\mathrm{Re}}\left(y^{\mathrm{Re}}\right)^T + x^{\mathrm{Im}}\left(y^{\mathrm{Im}}\right)^T \right|\right), \tag{13b}$$

bunda quyidagi shartlar o'rinli

$$\begin{gathered}\left(y^{\mathrm{Re}}\right)^T \cdot x^{\mathrm{Re}} + \left(y^{\mathrm{Im}}\right)^T \cdot x^{\mathrm{Im}} = 1, \qquad \left(y^{\mathrm{Re}}\right)^T \cdot x^{\mathrm{Re}} - \left(y^{\mathrm{Im}}\right)^T \cdot x^{\mathrm{Im}} = 0, \\ p_{kl}^i\left(y_k^{\mathrm{Re}} \cdot x_l^{\mathrm{Re}} + y_k^{\mathrm{Im}} \cdot x_l^{\mathrm{Im}}\right) > 0, \qquad k, l = 1, 2, \ldots, n,\end{gathered} \tag{14}$$

"$\circ$" – belgi matritsalar skalyar ko'paytmasini bildiradi, ya'ni mos indekslar bo'yicha ko'paytmasi va $A \circ B = \sum_{ij} a_{ij} b_{ij}$ formula bo'yicha hisoblanadi. Bu yerda xos qiymatlar haqiqiy qismi uchun $P^i = (p_{kl}^i)$ ishora matritsasi $\operatorname{mid}\boldsymbol{A}$ matritsaning mos chap va o'ng xos vektorlari $x, y \in \mathbb{R}^{n\times n}$ komponentlari yordamida hosil bo'lgan $\left(y_k^{\mathrm{Re}}\right)^i \cdot \left(x_l^{\mathrm{Re}}\right)^i + \left(y_k^{\mathrm{Im}}\right)^i \cdot \left(x_l^{\mathrm{Im}}\right)^i$ ifoda bilan aniqlanadi:

$$P^i = (p_{kl}^i) = \operatorname{sgn}\left(\left(y_k^{\mathrm{Re}}\right)^i \cdot \left(x_l^{\mathrm{Re}}\right)^i + \left(y_k^{\mathrm{Im}}\right)^i \cdot \left(x_l^{\mathrm{Im}}\right)^i\right), \quad k, l = 1, 2, \ldots, n. \tag{15}$$

Analog tarzda, (8) formulaga asosan mavhum qismlar $\overline{\lambda}^{\mathrm{Im}}$ va $\underline{\lambda}^{\mathrm{Im}}$ uchun ham baholar olingan:

$$\overline{\lambda}^{\mathrm{Im}} = \lambda\left(\operatorname{mid}\boldsymbol{A} + \operatorname{rad}\boldsymbol{A} \circ \left| x^{\mathrm{Im}}\left(y^{\mathrm{Re}}\right)^T - x^{\mathrm{Re}}\left(y^{\mathrm{Im}}\right)^T \right|\right), \tag{16a}$$

$$\underline{\lambda}^{\mathrm{Im}} = \lambda\left(\operatorname{mid}\boldsymbol{A} - \operatorname{rad}\boldsymbol{A} \circ \left| x^{\mathrm{Im}}\left(y^{\mathrm{Re}}\right)^T - x^{\mathrm{Re}}\left(y^{\mathrm{Im}}\right)^T \right|\right), \tag{16b}$$

quyidagi shartlar asosida

$$\left(y^{\mathrm{Re}}\right)^T \cdot x^{\mathrm{Re}} + \left(y^{\mathrm{Im}}\right)^T \cdot x^{\mathrm{Im}} = 0, \qquad \left(y^{\mathrm{Re}}\right)^T \cdot x^{\mathrm{Im}} - \left(y^{\mathrm{Im}}\right)^T \cdot x^{\mathrm{Re}} = 1,$$
$$p_{kl}^i \left(y_k^{\mathrm{Re}} \cdot x_l^{\mathrm{Im}} - y_k^{\mathrm{Im}} \cdot x_l^{\mathrm{Re}}\right) < 0, \quad k,l = 1,2,\ldots,n. \tag{17}$$

Bu hol uchun ishora matritsasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q^i = (q_{kl}^i) = \mathrm{sgn}\left(\left(y_k^{\mathrm{Re}}\right)^i \cdot \left(x_l^{\mathrm{Im}}\right)^i - \left(y_k^{\mathrm{Im}}\right)^i \cdot \left(x_l^{\mathrm{Re}}\right)^i\right), \quad k,\, l = 1,2,\ldots,n. \tag{18}$$

Nihoyat (13a)-(13b) va (16a)-(16b) larga muvofiq, barcha $A \in \boldsymbol{A}$ haqiqiy matritsalarning har bir $\lambda_i = \lambda_i^{\mathrm{Re}} + j\lambda_i^{\mathrm{Im}}$ xos qiymatlari chegaralari uchun formulalar olingan:

$$\lambda_i^{\mathrm{Re}}\left(\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} - \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A} \circ P^i\right) \le \lambda^{\mathrm{Re}} \le \lambda_i^{\mathrm{Re}}\left(\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} + \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A} \circ P^i\right),$$
$$\lambda_i^{\mathrm{Im}}\left(\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} - \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A} \circ Q^i\right) \le \lambda^{\mathrm{Im}} \le \lambda_i^{\mathrm{Im}}\left(\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} + \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A} \circ Q^i\right).$$

Bu yerda $\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} \pm \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A} \circ P^i$ va $\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} \pm \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A} \circ Q^i$ lar berilgan nosimmetrik interval matritsalar uchun qirra matritsalarni ifodalaydi.

Teorema 2. *Faraz qilaylik* $\boldsymbol{A} = \left[\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} - \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A},\, \mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} + \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A}\right] \in \mathbb{IR}^{n\times n}$ - *ixtiyoriy haqiqiy interval matritsa bo‘lsin. Agar* $\boldsymbol{A}$ *interval matritsaning* $\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}$ *o‘rta matritsasi turli* $\lambda_i = \lambda_i^{\mathrm{Re}} + j\lambda_i^{\mathrm{Im}}$ *xos qiymatlarga ega bo‘lsa, u holda barcha haqiqiy* $A \in \boldsymbol{A}$ *matritsalarning xos qiymatlari uchun quyidagi baho o‘rinli:*

$$\lambda_i^{\mathrm{Re}}\left(\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} - \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A} \circ P^i\right) \le \lambda^{\mathrm{Re}} \le \lambda_i^{\mathrm{Re}}\left(\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} + \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A} \circ P^i\right),$$
$$\lambda_i^{\mathrm{Im}}\left(\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} - \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A} \circ Q^i\right) \le \lambda^{\mathrm{Im}} \le \lambda_i^{\mathrm{Im}}\left(\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A} + \mathrm{rad}\,\boldsymbol{A} \circ Q^i\right),$$

bunda $P^i = (p_{kl}^i) = \mathrm{sgn}\left(\left(y_k^{\mathrm{Re}}\right)^i \cdot \left(x_l^{\mathrm{Re}}\right)^i + \left(y_k^{\mathrm{Im}}\right)^i \cdot \left(x_l^{\mathrm{Im}}\right)^i\right)$ *va*

$Q^i = (q_{kl}^i) = \mathrm{sgn}\left(\left(y_k^{\mathrm{Re}}\right)^i \cdot \left(x_l^{\mathrm{Im}}\right)^i - \left(y_k^{\mathrm{Im}}\right)^i \cdot \left(x_l^{\mathrm{Re}}\right)^i\right)$ *(*$k,\, l = 1,2,\ldots,n$*)* – $\mathrm{mid}\,\boldsymbol{A}$ *matritsaning chap va o‘ng xos vektorlari komponentlari yordamida aniqlanadigan ishora matritsalari.*

Ushbu usulda hosil bo‘ladigan qirra matritsalarining umumiy soni $4n$ ga teng. Taklif etilayotgan usul uchun ham mos hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan va dissertatsiyada psevdokodlar shaklida keltirilgan.

2.1.3-bo‘limda taklif etilayotgan usullar asosida simmetrik va nosimmetrik interval matritsalar uchun xos qiymatlar to‘liq muammosi bo‘yicha olingan sonli natijalar keltirilgan. Ushbu bo‘limda keltirilgan sonli natijalar asosan qiyosiy taqqoslash xarakteriga ega. Olingan sonli natijalarni boshqa mualliflarning natijalari bilan solishtirish imkoniyatiga ega bo‘lish maqsadida, keltirilgan barcha misollar ushbu sohadagi boshqa tadqiqotchilarning ishlaridan olingan.

Hisoblash tajribalari Intel® Core™ i3-3217U, CPU 1.83 GHz protsessorli va 4 GB DDR3 tezkor xotirali shaxsiy kompyuterda o‘tkazildi. Ishlab chiqilgan modulli dasturlarning ba’zi kodlari Embarcadero Dev-C++ v.6.3. dasturlash vositasida yozilgan bo‘lsa, ba’zilari GNU Octave v.4.2.1. matematik sistemasining interval hisoblashlar uchun mo‘ljallangan “Octave-interval v.3.2.0-3_amd64” dasturiy majmuaga moslab yozilgan. Ushbu dasturiy majmua interval arifmetika uchun IEEE Std 1788-2015 standartga mos keladi.

Misol 1. M.Hladik ishidan $\boldsymbol{A}^S \in \mathbb{IR}^{3\times 3}$ simmetrik interval matritsani qaraymiz:

$$\boldsymbol{A}^S = \begin{bmatrix} [0,2] & [-7,3] & [-2,2] \\ [-7,3] & [4,8] & [-3,5] \\ [-2,2] & [-3,5] & [1,5] \end{bmatrix}. \qquad (19)$$

O‘rta va radius matritsalar mos ravishda quyidagicha aniqlanadi:

$$\operatorname{mid}\boldsymbol{A}^S = \begin{pmatrix} 1 & -2 & 0 \\ -2 & 6 & 1 \\ 0 & 1 & 3 \end{pmatrix}, \qquad \operatorname{rad}\boldsymbol{A}^S = \begin{pmatrix} 1 & 5 & 2 \\ 5 & 2 & 4 \\ 2 & 4 & 2 \end{pmatrix}.$$

$\operatorname{mid}\boldsymbol{A}^S$ matritsaning xos qiymatlari va ularga mos xos vektorlari hisoblanadi, shuningdek, S^i ishora matritsasi aniqlanadi:

$\lambda_1 = 0.2564$, $\quad x^1 = (0.9298,\ 0.3457,\ -0.1260)$, $\quad S^1 = \operatorname{diag}(1, 1, -1)$,

$\lambda_2 = 2.8145$, $\quad x^2 = (0.1971,\ -0.1788,\ 0.9639)$, $\quad S^2 = \operatorname{diag}(1, -1, 1)$,

$\lambda_3 = 6.9291$, $\quad x^3 = (-0.3107,\ 0.9211,\ 0.2344)$, $\quad S^3 = \operatorname{diag}(-1, 1, 1)$.

Jadval 1 da (19) matritsa uchun turli mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan algoritmlar bo`yicha olingan sonli natijalari keltirilgan: (R) - J.Rohn algoritmi, (D1), (D2), (I1), (I2), (DD1), (DI1), (B) - algoritmlar esa M.Hladik va uning hammualliflari tomonidan taklif etilgan, (O) - D.Gertz algoritmi, jadvalning oxirgi satridagi sonli natijalar biz taklif etayotgan algoritm bilan olingan, umumiylikni saqlash maqsadida biz uni (N)-algoritm deb belgiladik.

Jadval 1. (19) simmetrik interval matritsa uchun sonli natijalar.

	$\left[\underline{\lambda}_1, \overline{\lambda}_1\right]$	$\operatorname{wid}(\boldsymbol{\lambda}_1)$	$\left[\underline{\lambda}_2, \overline{\lambda}_2\right]$	$\operatorname{wid}(\boldsymbol{\lambda}_2)$	$\left[\underline{\lambda}_3, \overline{\lambda}_3\right]$	$\operatorname{wid}(\boldsymbol{\lambda}_3)$
(R)	[-8.9026, 9.4154]	18.3180	[-6.3445, 11.9734]	18.3179	[-2.2298, 16.0881]	18.3179
(D1)	[-8.9026, 2.0000]	10.9026	[-2.5616, 6.0000]	8.5616	[4.0000, 15.3275]	11.3275
(D2)	[-8.9026, 2.0000]	10.9026	[-2.5616, 6.0000]	8.5616	[4.0000, 15.3275]	11.3275
(I1)	[-8.9026, 6.3760]	15.2786	[-3.3052, 10.4907]	13.7959	[-0.7436, 16.0881]	16.8317
(I2)	[-8.9026, 6.3760]	15.2786	[-3.3052, 10.4907]	13.7959	[-0.7436, 16.0881]	16.8317
(DD1)	[-8.3759, 2.0000]	10.3759	[-2.0000, 6.0000]	8.0000	[4.0000, 15.3275]	11.3275
(DI1)	[-8.3759, 6.7850]	15.1609	[-2.9115, 10.8445]	13.7560	[-0.9115, 16.3089]	17.2204
(B)	[-8.3759, 2.0000]	10.3759	[-2.0000, 6.0000]	8.0000	[4.0000, 15.3275]	11.3275
(O)	[-7.8184, 0.7522]	8.5706	[?, ?]	?	[6.3209, 15.3275]	9.0066
(N)	[-7.8184, 0.5921]	8.4105	[2.1194, 3.5639]	1.4445	[6.3209, 15.3275]	9.0066

Tashqi baholash masalalarida interval yechim optimal hisoblanadi, agar u iloji boricha minimal interval kenglikka ega bo‘lsa va albatta, qaralayotgan interval sistemaning barcha haqiqiy yechimlarini o‘z ichiga olsa. Bunda $\operatorname{wid}(\boldsymbol{\lambda}_i) = \overline{\lambda}_i - \underline{\lambda}_i$ funksiya interval yechimlar kengligini baholaydi. 1-jadvaldan (N)-algoritmi yordamida olingan sonli natijalar, boshqa algoritmlar natijalaridan yaxshiroq ekanligini ko‘rish mumkin.

Misol 2. Quyidagi nosimmetrik interval matritsani qaraymiz:

$$
\boldsymbol{A} = \begin{pmatrix} [-3,-2] & [4,5] & [4,6] & [-1,1.5] \\ [-4,-3] & [-4,-3] & [-4,-3] & [1,2] \\ [-5,-4] & [2,3] & [-5,-4] & [-1,0] \\ [-1,0.1] & [0,1] & [1,2] & [-4,2.5] \end{pmatrix}. \tag{20}
$$

Ushbu nosimmetrik interval matritsa uchun to‘liq muammoni yechish uchun ishlab chiqilgan usul bo‘yicha hisoblangan xos qiymatlar chegaralari 2-jadvalda keltirilgan.

Jadval 2. (20) matritsa uchun xos qiymatlarning interval bahosi.

$\boldsymbol{\lambda}_i$	$\underline{\lambda}_i^{\mathrm{Re}}$	$\overline{\lambda}_i^{\mathrm{Re}}$	$\underline{\lambda}_i^{\mathrm{Im}}$	$\overline{\lambda}_i^{\mathrm{Im}}$
$\boldsymbol{\lambda}_1$	-3.8502	-3.4325	6.4318	6.9672
$\boldsymbol{\lambda}_2$	-3.8502	-3.4325	-6.8986	-6.5645
$\boldsymbol{\lambda}_3$	-4.6471	-2.1729	0.9043	0.0000
$\boldsymbol{\lambda}_4$	-2.7729	2.6921	-0.9043	0.0000

Olingan sonli natijalarni taqqoslash uchun *Jadval 2* dan interval yechimlar birlashmasini topish orqali $\Lambda(\boldsymbol{A})$ yechim to‘plamning interval qobig‘i topiladi:

$$
\boldsymbol{\lambda}^{\mathrm{Re}} = \bigcup_{i=1}^{4} \boldsymbol{\lambda}_i^{\mathrm{Re}} = [-4.6471,\ 2.6921], \qquad \boldsymbol{\lambda}^{\mathrm{Im}} = \bigcup_{i=1}^{4} \boldsymbol{\lambda}_i^{\mathrm{Im}} = [-6.8986,\ 6.9672].
$$

Chunki (20) matritsa boshqa mualliflar tadqiqotlarida har bir xos qiymatni baholash emas, balki butun yechimlar to‘plami $\Lambda(\boldsymbol{A})$ ni baholashda qo‘llanilgan.

Jadval 3. (20) matritsa uchun $\Lambda(\boldsymbol{A})$ xos qiymatlar yechim to‘plamining interval baholari.

Metodlar	$\boldsymbol{\lambda}^{\mathrm{Re}}$	$\boldsymbol{\lambda}^{\mathrm{Im}}$
Rohn metodi	[-8.8221, 3.4408]	[-10.7497, 10.7497]
Hladik metodi	[-7.4848, 3.3184]	[-9.4224, 9.4224]
Hertz metodi	[-7.3691, 3.2742]	[-8.7948, 8.7948]
Taklif etilgan metod	[-4.6471, 2.6921]	[-6.8986, 6.9672]

*3-jadval*dan ko‘rinib turibdiki, biz taklif etgan usul bo‘yicha olingan natijalar boshqa mualliflarning usulida olingan yechimlarga nisbatan optimal, ya’ni minimal kenglikka ega bo‘lgan interval yechimlar olingan. Olingan natijalarning grafik interpretatsiyasi quyidagi rasmda tasvirlangan (Rasm 1).



Rasm 1. (20) matritsa uchun xos qiymatlar yechim to‘plami va uning interval qobiqlari.

Bu yerda barcha haqiqiy matritsalar xos qiymatlari to‘plamining aproksimatsiyasi Monte-Karlo usuli yordamida tasvirlangan. Turli xil ranglar xos qiymatlarning uzluksiz joylashuviga ko‘ra bir necha guruhlarga ajralgan. Barcha xos qiymatlar uyumlari interval qobiqlar yordamida qoplangan, ya’ni to‘rtta to‘rtburchaklar bilan chegaralangan. Anglash mumkinki, kompleks interval shaklidagi xos qiymatlar kompleks sonlar tekisligida ma’lum bir to‘rtburchakni ifodalaydi. Rasm 1 da, olingan interval baholardan ko‘rinib turibdiki, eng katta to‘rtburchak Rohn usuliga tegishli, ya’ni u yechim to‘plam haqida kam ma’lumot beradi. Eng kichik to‘rtburchak - bu biz taklif qilgan usul bilan olingan kompleks intervallar bo‘lib, u boshqa usullar natijalariga nisbatan to‘liqroq sohani ifodalaydi.

II bobning ikkinchi paragrafida simmetrik interval matritsalar uchun xos qiymatlar qismiy muammosini yechish bo‘yicha asosiy natijalar keltirilgan. Bunda iteratsion usullar qaralgan bo‘lib, xususan, interval matritsalar uchun darajali usul va skalyar ko‘paytmalar usuli algoritmlarining modifikatsiyalari ishlab chiqilgan.

Simmetrik interval matritsa uchun barcha xos qiymatlar to‘plami quyidagicha yoziladi:

$$\Lambda(\boldsymbol{A}^s) := \{\lambda \in \mathbb{R} \mid \exists A \in \boldsymbol{A}^s,\ \ \exists x \neq 0,\ \ ,\ Ax = \lambda x\}$$

va bu yerda $\boldsymbol{\lambda}_1 \in \mathbb{IR}$ dominant xos qiymat va unga mos $\boldsymbol{x}_1 \in \mathbb{IR}^n$ dominant xos vektorni topish talab etiladi. O‘z navbatida barcha $A^s \in \boldsymbol{A}^s$ matritsalar uchun: $\boldsymbol{\lambda}_1$ -

barcha dominant $\lambda_1^* \in \mathbb{R}$ xos qiymatlarni, $\boldsymbol{x}_1$ - esa unga mos barcha dominant $x_1^* \in \mathbb{R}^n \setminus \{0\}$ xos vektorlarni o‘z ichiga oladi.

